O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Sh.Sharipov
2019 yil "29" 06

"KELISHILDI"
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
2019 yil " 4 " 10

Ro'yhatga olindi: BD-5112200-2.05
2019 - yil "17" 09

# IQTISODIY BILIM ASOSLARINI O'QITISH METODIKASI

# FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5112200 –Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi

TOSHKENT – 2019

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil “4” 10 dagi 892-sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019 yil “17” 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

**X.T.Jumanov**– Nizomiy nomidagi TDPU “Iqtisodiy bilim asoslari o’qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti.

**N.I. Rustamov**– Nizomiy nomidagi TDPU “Iqtisodiy bilim asoslari o’qitish metodikasi” kafedrasi kata o`qituvchisi, PhD.

**N.X. Isayeva**– Nizomiy nomidagi TDPU “Iqtisodiy bilim asoslari o’qitish metodikasi” kafedrasi katta o`qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

B.T.Salimov - Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti “Sanoat iqtisodiyoti” kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori.

**R.A. Isayev** - Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti «Korporativ boshqaruv» kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o‘quv-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019 yil 29.06 dagi 41-sonli bayonnoma).

“Иқтисодий билим асослари” кафедраси мудири. в.б. Б. Бердиёров

## I.O‘quv faning dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rni

Mustaqillikning o‘tgan yillari mobaynida O‘zbekiston ochiq, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida ulkan yutuqlarga erishildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan mamlakatimizda o‘tkazilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar kishilar ongi va ruhiyatini o‘zgartirmoqda, ularni yangicha fikrlash, bozor iqtisodiyotini chuqurroq idrok etish va bozor talablariga moslashib ishlash va yashashga yo‘naltirilmoqda, tadbirkorlikka intilish keng tus olmoqda. Bu esa o‘z navbatida bozor ilmi iqtisodiy bilimlarni chuqurroq o‘rganishga katta ehtiyoj va qiziqishni keltirib chiqarmoqda. Bundan Oliy maktab talabalari ham chetda qolmaydilar, chunki talabalar Oliy ta'limni bakalavr darajasini olish uchun albatta iqtisodiyotning qonun qoidalarini, sir asrorlarini bilishlari va uni hayotda, mehnat jarayonida qo‘llashga intiladilar.

“Iqtisodiy bilim asoslarini o’qitish metodikasi” fani iqtisodiyot tushunchalarini, uning qonun-qoidalarini, tejamli xo‘jalik yuritish sirlarini, turli kishilar va xo‘jaliklarning bir-birlari bilan manfaatli iqtisodiy aloqada bo‘lib, unumli mehnat qilish yo‘llarini va shakllarini o‘rgatadi.

Shu bilan birga 2017 yil 20 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, unda oliy ta’lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo‘yicha eng muhim vazifalardan biri sifatida “...xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish...” vazifasi qo‘yildi. Belgilangan vazifalar va qo‘yilgan talablardan kelib chiqib, “Iqtisodiy bilim asoslarini o’qitish metodikasi” fani bo‘yicha ushbu o‘quv dasturi ishlab chiqildi.

## II. O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan **maqsad:** Talabalar tomonidan iqtisodiy voqelikni chuqur anglash, bilish va tegishli nazariy xulosalar chiqara bilish, shu asosda zamonaviy iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlarining mohiyatini tushunish, O‘zbekistonda iqtisodiy ustuvorlik g‘oyasi mazmuni to‘g‘risida mustaqil fikrlay olish. O‘zbekistonni bozor munosabatlariga o‘tishining, “O‘zbek modeli”ning hayotiyligini, uning mantiqiy davomi sifatida O’zbekistonni 2017-2021 yillarga mo’ljallangan rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasining umumjahon jamoatchiligi tomonidan tan olinganligini uning ilmiy asoslangan tamoyillari amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning negizi ekanligi to‘g‘risida har tomonlama keng qamrovli tushuncha va ko‘nikmaga ega bo‘lishiga erishish.

Fanning **vazifalari:**

- talabalarda iqtisodiy bilimlarga qiziquvchanligini, nazariy bilimlar, mushohada qilish usullari bilan qurollantirish;
- ularga iqtisodiyot qonun-qoidalarini, iqtisodiy hodisa va jarayonlar mazmunini chuqur va keng o‘rganish, bilish uchun zarur bo‘lgan uslubiy yondashuvlarni egallab olishlariga yordamlashish;
- talabalar ongiga milliy istiqlol g‘oyasini va mafkurasining asosiy tamoyillari,

qoidalarini hamda iqtisodiyotni erkinlashtirish, modernizatsiyalash va islohotlarni chuqurlashtirish asosida hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim vazifalarini singdirish:

"Iqtisodiyot nazariyasi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiradigan masalalar doirasida bakalavr:

- iqtisodiy bilimlarni o'rganish uslubiyati, qo'llaniladigan usullar va uslublar, borliq iqtisodiy hayotni, iqtisodiy jarayonlarni, voqea va hodisalarni tahlil qilish usullari haqida ***bilimga***;
- iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalar (kategoriyalar)ni, iqtisodiy masalalar bo'yicha qabul qilingan qonunlar va qarorlarni o'rganishi, bilishi, rioya qilishi va hayotda qo'llay olish ***ko'nikmaga;***.

«Iqtisodiyot nazariyasi» fani bo'yicha talabalar bilimiga qo'yiladigan umumiy talablar, ishchi dasturga kiritilgan har bir mavzudagi muammolarni o'zlashtirishi va ular bo'yicha mustaqil fikr yuritish darajasi bilan belgilanadi. Buni ishchi dasturga kiritilgan darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalardan iborat adabiyotlarni o'zlashtirishi va shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining iqtisodyotga oid bob va moddalarini, Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va iqtisodiy islohotlarining huquqiy asoslarini belgilab beruvchi qonunlar va boshqa meyoriy hujjatlarni o'rganish ***malakasiga ega bo'lishi kerak***.

## III.Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### I-Modul. Iqtisodiy bilim asoslarini fanidan dars jarayonini loyihalashtirish va rejalashtirish, o'qitish texnologiyasi komponentlari.

### 1-mavzu. Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifasi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi davrida umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy bilim asoslari fanining mazmun va mohiyati. Iqtisodiy bilim asoslari fanining o'qitish maqsad va vazifalari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitishning ta'lim-tarbiya vazifalari, mazmuni va metodlarini o'quvchilarga iqtisodiy fanlardan puxta bilim berish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda hamda iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitishning eng muhim vositalarini belgilashga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Iqtisodiy bilim asoslari fani o'quv dasturi asosida bilimlarni o'zlashtirish.

### 2-mavzu. O'quv jarayonini loyihalashtirish va rejalashtirish.

Iqtisodiy bilim asoslari fani darslarining maqsadi va kutilayotgan natijalarni belgilash. Darsning tuzilishi va uni o'tkazish tartiblari: 1) tashkiliy qism, 2) yangi mavzuni boshlashga hozirlik (yangi mavzu bilan bog'liq o'tgan dars mavzularini takrorlash; yangi mavzuni o'tishdan oldin o'quvchilarning bu mavzuga oid bilim darajalarini aniqlash va baholash; yangi dars maqsadini tushuntirish), 3) yangi mavzuni yoritish, 4) yangi mavzuni mustahkamlash, 5) darsga yakun yasash va baholash, 6) uyga vazifa.

**3-mavzu. Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi fani xonasini tegishli normativlar asosida jihozlash.**

Iqtisodiy bilim asoslari o'quv xonasiga qo'yiladigan umumiy talablar.Texnika xavfsizligi va gigiena talablari. Fan xonalarining o'quv va moddiy bazasi. Fan xonasida bo'lishi lozim bo'lgan zaruriy hujjatlar. Iqtisodiy bilim asoslari o'quv xonasida bo'lishi lozim bo'lgan texnik vositalar va ko'rgazma qurollari.

**4-mavzu. Iqtisodiy ta'limni texnologiyalashtirishga kirish.**

Iqtisodiy ta'lim jarayonida texnologik yondoshuv, ta'limni texnologiyalashtirish, texnologiya, ishlab chiqarish texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi (O'T), ta'lim texnologiyasi (TT), pedagogik texnologiya (PT), pedagogik tizim (PT), ta'lim berish metodikasi (uslubiyoti), fan metodikasi (FM), konsepsiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tizimli yondoshuv, faoliyatli yondoshuv, diologik (muloqotli) yondoshuv, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim.

**5-mavzu. Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi fanini o'qitish texnologiyasi: tizimli komponentlari, ishlab chiqarish va amalga oshirishning protsessual tuzilishi.**

Iqtisodiy ta'lim jarayonida mavzularni yoritishda o'qitish texnologiyalari komponentlaridan: model, tuzilish, komponent (tarkibiy qismlar), element (belgilar), funksional tuzilish, loyihalashtirish, maqsadlashtirish, maqsad, vazifa, natija foydalanish.

Pedagogik tizim, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchilar, maqsad, natija. (1) bu ta'limning nimaga kelishi: bu ta'lim jarayonining vaqti tugagandan so'ng ta'lim oluvchi nimani bilishi, bila olishi va qadrlashi shart; (2) ta'lim jarayonini ketishi samarasini namoyon qiladi, maqsadga erishish darajasini tavsiflab beradi. O'qitish va bilim olish jarayoni natijalari qo'yilgan maqsadga erishishi.

**6-mavzu. Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi ta'lim usuli-o'qitish texnologiyasi komponenti.**

Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish usullari: ta'lim usuli, o'qitish usuli, o'rgatish usuli, interfaol ta'lim, «Aqliy hujum» usuli, "Sinkveyn", Klaster, "Baliq skeleti", Venn diogrammasi, T-sxema, «Insert» texnikasi, amaliy vaziyatlarga o'rgatish usuli, (Case – stadi), «Ekspertlarni so'roqlash» usuli.

**7-mavzu. Iqtisodiy ta'limni tashkillashtirish shakllari-o'qitish texnologiyasi komponenti.**

Ta'lim shakllari mazmun-mohiyati, ta'limni tashkiliy shakli, frontal, kollektiv bilan (jamoa bilan), guruhlar shakllanishini aniqlovchi prinsiplar (asosiy qonun-qoidalar), guruhlarda hamkorlikda ishlashni tashkillashtirish texnologiyasi, guruhlar bilan va yakka tartibda (individual) ishlash, o'zaro hamkorlikdagi ta'lim "Zigzag", "Pila-arra", "O'rganamiz" texnikalari.

**8-mavzu. Iqtisodiy ta'lim vositalari-o'qitish texnologiyasi komponenti.**

Ta'lim vositalar, ta'limning texnik vositalari (TTV), yordamchi ta'lim vositalar

(YOTV), o'quv-uslubiy materiallar (O'UM), Insert tablitsasi, klaster, kategorial tablitsa, T-sxema, B/Bx/Bo/ tablitsasi, Venna diagrammasi, grafiklar, diagrammalar, (tizimli-mantiqiy) sxemalar, xronologik tablitsalar.

**II-Modul. Talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning nazariy, ilmiy-uslubiy va amaliy asoslari, pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari tahlili.**

**9- mavzu. OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.**

Iqtisodiy savodxonlikning tarixiy-milliy va ijtimoiy asoslari tahlili, noiqtisodiy OTM talabalariga iqtisodiy ta'lim berishning hozirgi holati, bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillari.

**10- mavzu. Iqtisodiy bilim asoslari fani dars jarayonlarida buyuk ajdodlarimizning merosidan foydalanish.**

Yoshlarda iqtisodiy taffakurni shakllantirish jihatlari. Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitishda O'rta Osiyo mutaffakirlari: Abu Ali ibn Sino, Abu Nosir Farobiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi allomalarimizning ilmiy merosidan foydalanish. Buyuk sohibqiron Amir Temurning iqtisodiy qarashlari. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov iqtisodiy islohotlarning asoschisi va rahnomachisi.

**11- mavzu. Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy va amaliy asoslari.**

Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni va komponentlari, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning metog va shakllari, talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning amaliy-didaktik vositalari.

**12- mavzu. Pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari tahlili.**

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning mazmuni, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari va tahlili, tajriba va nazorat guruhi natijalarining ko'rsatkichlari taqsimoti, tajriba-sinov guruhlari talabalarining iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish darajasi (foiz hisobida), nazorat guruhlari talabalarining iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish darajasi, tajriba-sinov va nazorat guruhlari talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini taqqoslovchi va umumlashtiruvchi topshiriqlarni bajarish natijalari (% hisobida).

**13- mavzu. G'arb olimlarii iqtisodiy qarashlarining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati.**

Iqtisodiy bilim asoslarini fanini o'qitishda merkantalizm, fiziokratlar, mumtoz(klassik) va marjenalizm ta'limoti namoyondalarining qarashlari.Hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlari: neoklassik (yangi klassik), Keynschilik va institutsiolizm oqimi namoyondalarining iqtisodiy qarashlari. Monitarizm maktabi iqtisodiy qarashlari.

**14- mavzu. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida keltirilgan iqtisodiy tahlilda o'qitish texnologiyasi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning asarlarida iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish masalalari. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hududlar, uy xo'jaliklari iqtisodiyotining tahlili. Turizm va ijtimoiy soha rivojlanishi tahlili. "Ochiq iqtisodiyot" tamoyili asosida investitsion siyosat yuritish. Mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlash masalalari. Eksportga yo'naltirilgan sohalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari.

**III-Modul. Ma'ruza mashg'ulotlarida o'qitish texnologiyasi.**

**15-mavzu. Ma'ruza- o'qitish texnologiyasining tarkibiy qismi.**

Ma'ruza (M), kirish ma'ruzasi (M), yakuniy ma'ruza (M) ma'lumotli ma'ruza (M), muammoli ma'ruza (M), binar (qo'sh) ma'ruza (M), xatolari oldindan rejalashtirilgan ma'ruza (M), vizual ma'ruzalar (M), ma'ruza-konferensiyalar (M), ma'ruza-konsultatsiyalar, ma'ruza-axborotlar (M).

**16-mavzu. Mavzuga (tematikaga oid) ma'ruzalarda o'qitish texnologiyasi.**

Ta'lim xizmatlari bozori, marketing, sub'ekt, ob'ekt, marketing vazifalari, ta'lim muassasalari, marketing konsepsiyasi, marketing prinsiplari, ixtisoslashtirish chuqurligi, rasmiy talablarni qoniqtirish, mijozlar ehtiyoji xususida marketing falsafasi, vaziyatli boshqaruv, bozor kon'yunkturasi, statistik usul.

**17-mavzu. Ochiq ma'ruzalarda va ma'ruzalarda ekspertlarni taklif qilgan holda o'qitish texnologiyasi.**

Kommunikatsiyalar, kompleksli marketing kommunikatsiyalari, reklama, pablik rileyshnz, direkt marketing, brending, seylz promoushn, reklamalashtirish jarayonini tashkillashtirish, reklama turlari, jamoatchilik bilan aloqalar, imidj, shaxsiy aloqa.

**18-mavzu. Muammoli ma'ruzalarda o'qitish texnologiyasi.**

Stereotiplar, narxlanish muammolari, iqtisodiy o'sish, narxlar tuzilishi, vaqt omili, iste'mol narxi, iqtisodiy samara, kon'yukturaning o'zgarishi, tuzatish, tannarx, chegirmalar, narxlash raqobati, narx o'zgaruvchanligi, narx dinamikasi, narx moslashuvi, narx yaratish.

**19-mavzu. Kurs bo'yicha yakuniy ma'ruzada o'qitish texnologiyasi.**

Ta'lim doirasida marketing bo'yicha kursning muhim asosiy tushunchalari. Kursning asosiy tushunchalarini umumlashtirish va qaytarish, detallashtirishdan mustasno ravishda ilmiy bilimlarni tizimlashtirish.

**IV-Modul. Seminar va amaliy mashg'lotlarda o'qitish texnologiyasi.**

**20- mavzu. Seminar- o'qitish texnologiyasining tarkibiy qismi.**

Seminar – OO'YUda ta'limni tashkillashtirish shakli.Seminarlarda o'qitish texnoloogiyasini loyixalashtirish va amalga oshirish. Seminar, seminar turlari,

boshqarish, samaradorlik bahosi, ta'limning savol-javob texnikasi.

**21- mavzu. Amaliy mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlarni yechish bo'yicha o'qitish texnologiyasi ("kyeys stadi").**

«Keys-stadi»ga kirish. Marketingli vaziyatni o'rganish. Muammoni va uni yechish vazifalarini aniq ifoda etish. Yechish algoritmini ishlab chiqish. «Keys-stadi»ni guruhlarda yechish. Natijalar prezentatsiyasi, muhokama va eng yaxshi variantlarni tanlash Ta'lim xizmatlarining raqobatbardoshligi bo'yicha baholash o'tkazish uslubiyotini egallash.

**22-mavzu. Seminar mashg'ulotlarida bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha o'qitish texnologiyasi.**

Ta'lim tizimida marketing kommunikatsiyalari. Ta'lim xizmatlari bozoridagi kommunikatsiya siyosatining muammolari. Internet-ta'lim tizimiga kirish bo'limalari orqali ta'lim xizmatlarini rivojlantirish. Ta'lim xizmatlari bozoridagi asosiy muammolar. Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, mavzuning turli aspektlari bo'yicha o'z nuqtai nazaridan argumentlashtirilgan bayonining ko'nikmalarini rivojlantirish.

**23- mavzu. Muammoli seminarlarda o'qitish texnologiyasi.**

Mavzu mazmuniga kirish; Muammoli vazifani o'rganish; Muammoni va uni yechish vazifalarini aniq ifoda etish; Guruhlarda muammoli vazifani yechish; Natijalar prezentatsiyasi, muhokama va uning eng optimal variantlarini tanlash. Ta'limda investitsiyaning iqtisodiy samarasini hisobga olish tartibi bilan tanishish. Mustaqil ravishda muammoni ajrata olish qobiliyatini shakllantirish, uning echimi natijalarini tahlil qilish va baholash.

## V-Modul. Iqtisodiy bilim asoslarini fanida amaliy mashg'lotlarni tashkil etish va o'tkashish.

**24-mavzu. Iqtisodiy bilim asoslarini fani bo'yicha o'quv topshiriqlari va testlar tuzish.**

Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish. Test topshiriqlari va uning asosiy shakllari: 1) ochiq javobli, 2) yopiq javobli, 3) bitta tanlov javobli, 4) ko'p tanlov javobli, 5) kombinatsiyalashgan test topshiriqlari. Test topshiriqlarini tuzish metodikasi. Iqtisodiy bilim asoslari fanidan ishlab chiqiladigan test topshiriqlariga qo'yiladiladigan asosiy talablar. Iqtisodiy bilim asoslari fanidan tuzilgan test topshiriqlarini yechish bo'yicha yo'l-yo'riqlar. Ekspress-testlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalar. 8-sinf uchun ochiq javobli testlar tuzish. 9-sinflar uchun yopiq javobli testlar tuzish.

**25-mavzu. Iqtisodiy bilim asoslarini fanidan masalalar yechish.**

Masala yechish va mashqlar uchun umumiy qoidalar. Murakkab mavzular bo'yicha masalalar yechish uslublari. Iqtisodiy muammolarni o'rganishda matematik, mantiqiy va refleksli masalalarni yechish. Iqtisodiy masalalarni chiziqli funksiyalar asosida yechish, ularni modellashtirish. Masalani chizmalar ustida yechish.

**26-mavzu. Darslarni kuzatish va natijalarini tahlil qilish.**

Mashg'ulotni o'tkazish bo'yicha treningga tavsiyalar. O'qituvchining darsga tayyorgarlik bosqichlari. Zamonaviy dars: didaktik tuzilishi, darsning mantiqiy-psixologik tuzilishi, darsda izlash faoliyati bosqichlari,darsning motivlangan tuzilishi, dars tipologiyasi.Darsni baholash mezonlari.

**VI-Modul. Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar.**

**27-mavzu. Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi fanidan yangi tahrirdagi DTS.**

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qaroriga asosan umumiy o'rta ta'limning hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari qabul qilinganligi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalari. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining asosiy prinsiplari va tarkibiy qismlari. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablarining mazmuni. o'rganish bosqichlari, tuzilishi va tayanch kompetensiyalar.

**28-mavzu. Ta'lim jarayonida pedagogik mahoratga zamonaviy yondashuv.**

Zamonaviy ta'lim yondashuvlari, uning maqsad va vazifalari. An'anaviy va noan'anaviy o'qitishning qiyosiy tahlili. Zamonaviy mashg'ulot samaradorligi omillari. Blum taksonomiyasi. Zamonaviy ta'limning tashkiliy-pedagogik va ilmiy-metodik omillari. O'quv jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishda o'qituvchi mahorati. Pedagogik mahorat kategoriyalari. O'qituvchining kasbiy fazilatlari.

**29-mavzu. Zamonaviy yondashuv va innovatsiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish.**

Innovatsiyalarni tatbiq etish usullari. Ta'lim samaradoriligi oshirishda zamonaviy yondashuvning konsepsual asoslari: suhbatli yondashuv, tizimli yondashuv, hamkorlikdagi ta'lim, psixologiya-pedagogikada insonparvarlik yondashuv, muammoli yondashuv, faoliyatli yondashuv, axborot texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

**30-mavzu. Iqtisodiy ta'lim tizimida innovatsion va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb masalalari.**

Ko'chma mashg'ulot "Zamonaviy yondashuv va innovatsiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish" mavzusi doirasida, talab darajasidagi moddiy-texnika bazasiga ega va ilmiy-uslubiy jihatdan tajribali professor-o'qituvchilar va mutaxassislar faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislik kafedralari, ilmiy-tekshirish institutlari va boshqa mussasalarda tashkil etiladi.

**VII-Modul. Tanlov o'quv moduli.**

**31-mavzu. Tanlov o'quv moduli mavzulari o'qitish texnologiyalari.**

Asosiy qismda modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketligini shakllantirishi va

12. Ta'lim jaraėnida qo'llaniladigan innovatsion vositalar.
13. Ta'lim jaraėnini loyihalash, loyiha asosida ishlash metodikasi.
14. Ta'lim jaraėnini loyihalash ko'nikmalari.
15. Pedagogik texnologiya loyihalari: ilmiy ėndashuvlar va echimlar.
16. Loyihaviy ta'lim texnologiyalari.
17. Loyihalashtirishda o'quvchi shaxsining individual hamda ėsh xususiyatlari.
18. Zamonaviy ta'limda dars jaraėnini loyihalash
19. Dars jarayonini loyihalashda o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash.
20. Avesto kitobida iqtisodiy tarbiyaning o'rni va ahamiyati haqida.
21. Ali Abu ibn Sino asarlarida iqtisodiy tarbiya.
22. Amir Temur iqtisodiy g'oyalari.
23. Mirzo Ulug'bek iqtisodiy qarashlari.
24. A. Navoiy iqtisodiy g'oyalari.
25. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalar.
26. I.Karimovning O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni.
27. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning asarlarida iqtisodiy islohotlarning tahlili.
28. SH.M.Mirziyoyevning O'zbekiston iqtisodiėtni rivojlantirish va liberallashtirish masalalaridagi qarashlari.
29. SH.M.Mirziyoyevning asarlarida makroiqtisodiy barqarorlik haqidagi mulohazalari.
30. SH.M.Mirziyoyev iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish haqida.
31. SH.M.Mirziyoyevning asarlarida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish masalalari.
32. SH.M.Mirziyoyevning kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

## VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

### Asosiy adabiyotlar

1.З.Худойбердиев, Н.Ходжитдинова, Т.Ходжитдинов. Иктисодий билим асослари. Ўкув кўлланма.Т: "Ўкитувчи" 2000 йил.
2.O'lmasov A., Vahobov A.B. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. — T.: «Iqtisod-moliya», 2014. - 480 bet.
3.Shodmonov Sh.Sh., Gofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2014. - 728 bet.
4. Sariqov E., Haydarov B.—Iqtisodiy bilim asoslari‖. 9-sinflar uchun darslik.-T.:

—O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi‖ Davlat ilmiy nashrieti. 2010 y.
5. Sh.S.Shodmonova. -Pedagogik texnologiyalar.-T.:-“Fan va texnologiya”. 2011 y.
6.H.T.Omonov, H.X.Xo’jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogiк mahorat -T.:-“IQTISOD-MOLIYA”. 2009 y.

## Qo‘shimcha adabiyotlar.

7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O‘zbekistan, 2017. - 46 b.
8. O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF- 4947-sonli “2017-2021 yillarda O‘zbekistan Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yunalishi bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekistan davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekistan Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. Sh.M. Mirziyoyev - Toshkent:O‘zbekiston, 2016.-56 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yunalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar//
Sh.M. Mirziyoyev, Toshkent: O‘zbekiston, 2017 -104 b.
11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash
yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y, -48 b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respeublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tqazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan./ Sh.M. Mirziyoyev. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. -488 b.
13.Узбекистан в цифрах. Статических сборник 2015.- Т.: Госкомстат Узбекистана. 2016. - 124 стр.

## Internet saytlari

Nizomiy nomli
T
kutubxonasi

16. www.gov.uz
17. www.lex.uz
18. www.tdpu.uz
19. www.edu.uz
20. www.economist.com
21. www.ereport.ru
22. www.stplan.ru
23. www.catback.ru